




**ANDIJON VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI**

**ANDIJON VILOYATINING SANOAT ISHLAB
CHIQUARISHI 2025-YIL YANVAR FEVRAL OYI**




DASTLABKI MA'LUMOT

**Tel.: 74 228-30-42
www.andstat.uz**

Andijon viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

(2025-yil 1-mart holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 4 485 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda. Shundan 1 231 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 27,4 %) Andijon shahriga, 521 tasi (11,6 %) Andijon tumaniga, 354 tasi (7,8 %) Asaka tumaniga, 323 tasi (7,2 %) Shahrixon tumaniga va 265 tasi (5,9 %) Xo'jaobod tumaniga to'g'ri kelmoqda.




Andijon viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari

Sanoat- bu, xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2025-yilning yanvar-fevral oyida viloyat korxonalari tomonidan 11 511,6 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2024-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi 103,1% ni tashkil etdi.


Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.



Sanoat ishlab chiqarishi hajmi, yanvar-fevral mlrd. so'mda




Sanoat ishlab chiqarishi FHI, yanvar-fevral % da




Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, hududlar kesimida

Andijon viloyatida 2025-yilning yanvar-fevral oyida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi 3 358,4 ming so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich aholi ehtiyojlari ishlab chiqarish mahsulotlariga nisbatan o'sib borayotganini ko'rsatadi.



Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 11 511,6 mlrd. so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 103,1 % ni tashkil etdi.



2025-yilning yanvar-fevral oyida viloyatda jami sanoat ishlab chiqarishi- dagi yuqori ulush Asaka tumani (53,4 %), Andijon shahar (18,3 %), Xonobod shahar (3,2%), Qo'rg'ontepа tumani (2,9 %) hissasiga to'g'ri keldi.

Shuningdek, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan yuqori FHI Baliqchi tumanida (106,8 %), Buloqboshi tumanida (116,7 %), Ulug'nor tumanida (115,3 %) Izboskan tumanida (106,7 %), kuzatildi.



B
C
D
E


Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, yanvar-fevral, % da

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash


Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – tabiatda qattiq jinslar shaklida uchraydigan (ko'mir, ruda), suyuq holatda uchraydigan (neft) yoki gazsimon holatda uchraydigan (tabiiy gaz) foydali qazilmalarni qazib olishni o'z ichiga oladi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2025-yilning yanvar-fevral oyida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 195,4 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,7 % ini tashkil etdi.

*Sanoat ishlab chiqarishi hajmi,
yanvar-fevral mlrd. so'mda*



*Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashning
jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi*




Ishlab chiqaradigan sanoat

Ishlab chiqaradigan sanoat - bu tarmoq yangi mahsulot chiqarish maqsadida modda yoki komponentlarni, materiallarni, garchi ishlab chiqarishning ma'lum turi uchun birdan-bir to'liq me'zon hisoblanmasa ham, fizik yoki kimyoviy qayta ishlashni o'z ichiga oladi.


2025-yilning yanvar-fevral oyida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 11 055,1 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 96,0 % ni tashkil etdi.

*Sanoat ishlab chiqarishi hajmi,
yanvar-fevral mlrd. so'mda*




*Ishlab chiqaradigan sanoatning jami sanoat
ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi*

*Sanoat ishlab chiqarishi FHI,
yanvar-fevral % da*



Yanvar-fevral oyida ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar
tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlar
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)


Neft




Yumshoq bug'doy
va spelta uni




Paxta tolasi




Paxta chigiti



Paxtadan yigirilgan ip



Temir yoki po'lat simdan
matolar, panjaralar, to'rlar



Yengil avtomobillar




Alyuminiydan elektr
izolyatsiyasiz



80 % dan kam bo'lmagan
etil spirti



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqarilgan sanoat tarkibida 2025-yilning yanvar-fevral oylarida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,0 % ni (2024-yilning yanvar-fevral oyida 0,1 %), 2025-yilning yanvar-fevral oyida o'rta-yuqori texnologiyali – 69,9 % (2024-yil yanvar-fevral oyida o'rta-yuqori texnologiyali 75,9 %), 2025-yilning yanvar-fevral oyida o'rta-quyi texnologiyali – 3,1 % (2024-yil yanvar-fevral oyida o'rta-quyi texnologiyali 1,8 %), 2025-yilning yanvar-fevral oylarida quyi texnologiyali 26,9 % (2024-yil yanvar-fevral oylarida quyi texnologiyali 22,2 %) ni tashkil etgan.



* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Andijon viloyatida
yirik korxonalar tomonidan yengil avtomobillar ishlab chiqarish
(2025-yilning yanvar-fevral oyida)

Yengil avtomobillar – umumiy yoki “maxsus yengil avtomobillar”ga bo‘linib, 4 kishigacha mo‘ljallangan transport vositasi.

Avtomobil ishlab chiqarish sanoatida 2025-yilning yanvar oyida 32 016 dona “Cobalt” (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 90,6 % ga kamaydii), 19 461 dona “Tracker” (121,1 % ga oshdi), 5 837 dona “Onix” (125,4 % ga oshgan) ishlab chiqarildi.




“Cobalt”




“Gentra”



“Tracker”




“Onix”



Metallurgiya sanoati

Metallurgiya sanoati – cho'yan ishlab chiqarish va qora va rangli metallarni qayta ishlash, jumladan, quyma cho'yan va toza metallarga kimyoviy elementlar qo'shgan holda superqotishmalar ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2025-yilning yanvar-fevral oyi yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,0 % bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 84,3 % va ishlab chiqarish hajmi 5,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish – minerallar asosida mahsulotlar ishlab chiqarishga tegishli bo'lgan ishlab chiqarish turlarini o'z ichiga olib, shisha va shishadan mahsulotlar, keramik buyumlar, polga o'rnatiladigan qoplamalar, kafel, cherepitsa, terrakota buyumlar, sement va xomashyodan tayyor mahsulotgacha ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2025-yilning yanvar-fevral oyi yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,8 % ni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 105,0 % ga o'sdi va ishlab chiqarish hajmi 209,7 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish – yeyiladigan qishloq xo'jaligi, o'rmon va baliqchilik (oziq-ovqat) mahsulotlarini, spirtsiz ichimliklarni, mineral suvlarni va boshqa idishdagi suvlarni o'z ichiga oladi.


2025-yilning yanvar-fevral oyi yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 6,9 % ni tashkil etib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 106,5 % va ishlab chiqarish hajmi 762,4 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

Ichimliklar ishlab chiqarish – spirtsiz ichimliklar va mineral suvlarni ishlab chiqarishni, spirtli ichimliklarni ishlab chiqarishni, asosan fermentatsiya metodi orqali; pivo va vino, shuningdek, distillangan alkogol ichimliklar ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2025-yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,1 % bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 106,5 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 13,6 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish – to'qimachilik tolasini tayyorlash va yigirish, shuningdek, to'qimachilik gazlamalarini va tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, to'qimachilik mahsulotlariga va kiyimlarga bezak berish, kiyimlardan tashqari tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2025-yilning yanvar-fevral oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 11,0 % ni tashkil etgan, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 102,4 % ga ko'payib, ishlab chiqarish hajmi 1 212,1 mlrd. so'mga to'g'ri keladi.



Kiyim ishlab chiqarish

Kiyim ishlab chiqarish – barcha materiallardan (masalan, teri, to'qimachilik gazlamalari, to'qilgan va trikotaj gazlamalari va h.k.) barcha tikish mahsulotlarini (tayyor yoki alohida buyurtma bo'yicha qilingan), kiyimlarning barcha turlari (masalan, ustki kiyim, erkaklar, ayollar va bolalar uchun ichki kiyimlar, ish, ofis, kundalik yoki sport kiyimlari va h.k.) va aksessuarlarni ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2025-yilning yanvar-fevral oylarida kiyim ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 9,8 % bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 101,9 % va ishlab chiqarish hajmi 1 088,9 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish – kimyoviy jarayonlar yordamida organik va noorganik xomashyo, materiallarni qayta ishlashni va tayyor mahsulot ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2025-yilning yanvar-feval oyi yakunlariga ko'ra, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,7 % ni tashkil etib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 75,1 % ga oshdi hamda ishlab chiqarish hajmi 78,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish

Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish – foydalanish uchun tayyor bo'lgan xom neft va ko'mir mahsulotlarini qayta ishlashni, xom neftni komponentlarga separatsiyasida bo'lgan kreking va distillyatsiyalash yo'li bilan neftni tozalashni hamda etan, propan va butan kabi gaz mahsulotlarini, neftni qayta ishlash zavodi mahsulotlarini o'z ichiga oladi.


2025-yilning yanvar-fevral oyi yakunlariga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,00 % ni, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 52,7 % ni tashkil etdi hamda ishlab chiqarish hajmi 1,0 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish – rezina va plastikdan mahsulot ishlab chiqarishni, ishlab chiqarishda foydalanadigan xomashyo materiallarini o'z ichiga oladi. Lekin bu bo'limga ishlab chiqarishning barcha turlari va materiallari kiradi degani emas.


2025-yilning yanvar-fevral oyi yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,7 % ni, fizik hajm indeksi 113,3 % ni tashkil qildi hamda ishlab chiqarish hajmida 80,2 mlrd. so'm kuzatildi.



Elektr uskunalari ishlab chiqarish

Elektr uskunalari ishlab chiqarish – elektr energiyasini ishlab chiqaruvchi va taqsimlovchi mahsulotlar ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi. Shuningdek, bu bo'lim elektr yorituvchi, signal uskunalari va maishiy elektr asboblari ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2025-yilning yanvar-fevral oyi yakunlariga ko'ra, ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi elektr uskunalari ishlab chiqarishning ulushi 1,3 % ni, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 102,4 % ni tashkil etdi hamda ishlab chiqarish hajmi 143,0 mlrd. so'm ekani kuzatildi.



Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish

Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish – “toza metallardan aralashmasiz” buyumlar ishlab chiqarish (ehtiyot qismlari, konteynerlar va moslamalar), odatda statsionar, faqat elektr, elektron yoki optik asboblarga uchun radiopriborlar, uzatish moslamalari kabi, ko'rsatilgan metallar (ba'zida boshqa metallar bilan) va ancha murakkab birikmalar qotishmalarini ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2025-yilning yanvar-fevral oyi yakunlariga ko'ra, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,3 % ni, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 72,2 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 74,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish

Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish – yo'lovchilar yoki yuklarni tashish uchun avtotransport vositalari ishlab chiqarishni o'z ichiga olib, turli butlovchi qismlar va aksessuarlar, shuningdek, tirkamalar va yarim tirkamalarni ishlab chiqarishni ham o'z ichiga oladi.

2025-yilning yanvar-fevral oyi yakunlariga ko'ra, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 62,7 % ni tashkil etib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 98,8 % ga oshdi, ishlab chiqarish hajmi 6 932,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, hududlar kesimida

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – elektr energiyasini, tabiiy gazni, bug'ni, issiq suvni va shu kabilarni doimiy tarmoqlar – kabellar, quvurlar, suv quvurlari orqali yetkazib berish bilan bog'liq faoliyatni o'z ichiga oladi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 227,0 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2.0 % ini) tashkil etgan.

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi, yanvar-fevral mlrd. so'mda



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi

Sanoat ishlab chiqarishi FHI, yanvar-fevral % da




Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish – qattiq va suyuq, sanoat va maishiy, shuningdek, zaharlangan chiqindilarning barcha turlariga ishlov berish (yig'ish, qayta ishlash va yo'qotish)ni o'z ichiga oladi.


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 33,3 mlrdso'mga (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,3 % iga) to'g'ri keldi.

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi, yanvar-fevral mlrd. so'mda



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi,
chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishning
jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi

Sanoat ishlab chiqarishi FHI, yanvar % da



Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2 665,5 mlrd. so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 23,2 % ni tashkil etdi.

